



KAPSULA GARDEROB VA UNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Islomova Saodat Qamariddin qizi
QarDu, 1-kurs san'atshunoslik fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy kiyinish madaniyatida keng tarqalgan kapsula garderob tushunchasi, uning asosiy prinsiplari va kundalik hayotdagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada kapsula garderob inson vaqtini, mablag'ini va kuchini tejash, barqarorlikka erishish, shuningdek, shaxsiy uslubni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kapsula garderob, minimalizm, moda, kundalik kiyim, shaxsiy uslub, barqaror kiyimlar.

Kirish

Kapsula garderob bu hozirgi globallashgan va zamonaviylashgan paytda inson hayotida muhim o'rin tutadigan elementga aylanib bomoqda. Aslida kapsula garderob 1870 yilda Susie Faux tomonidan tashkil qilina boshlangan bo'lib, ayollar uchun bor mato va kiyimlardan moslashtirilgan va uyg'unlashtirilgan holda zamonga mos kiyimlar yaratishni boshlagan. Kapsula garderobi — bu rangi va uslubi bo'yicha bir-biriga mos keladigan kiyimlar kolleksiyasi. Kapsulaning asosiy g'oyasi — minimum liboslar to'plamidan iloji boricha ko'p obrazlarni yaratish. Masalan, kapsulada 10 ta narsa bo'lsa, bu sizda 15 yoki undan ko'proq tayyor obrazlar bor degani. Albatta, bu yerda fantaziyaga ham ko'p narsa bog'liq.[1]

Kapsula garderobda biz ko'p kiyim yig'masdan, oz sonli, kerakli va bir-biriga mos kiyimlarni tanlab, shu kiyimlar bilan har xil holatga moslab kiyinib yurishimiz mumkin

ЎZBEKISTONDA KAPSULA GARDEROB:

Bizda yani O'zbekistonda odamlar odatda ko'proq kiyim olishga odatlangan

Masalan: bazmga alohida, ishga alohida, ko'chaga alohida kiyim. Lekin anchagina kiyimimiz bo'lsa ham biror joyga borishimizdan oldin shkafning oldiga o'tirib kiyim tanlaymiz bu narsa esa bizning vaqtimizni oladi va eng asosiysi o'zingizga birorta yoqadigan kiyim topa olmaymiz bunga asabiylashamiz va borayotgan joyimizga ham kayfiyatsiz borishimiz mumkin. Bu narsalar bulsa bizning miyamizga "Mening kiyishga hech narsam yo'q" degan signal yani fikirni beradi va biz shu fikr bilan yangi kiyim harid qilishga boramiz. Biz bozorga borganimizdan s'ng asosan ko'zimizga chiroyli ko'ringan narsani olamiz va bu, orada ko'p vaqt o'tmay bizga yana "Mening kiyishga kiyimim yo'q" degan fikirni berishi mumkin. Bundan bo'lsa bizning yana asabimiz buzula boshlaydi agar shu xatoni qayta takrorlayversak ko'p pul sariflashimiz, shkafimizning betartibligi va hech qaysi kiyimimizga tushmaydigan lekin axlatga ham tashlab bo'lmaydigan kiyimlarimizning ko'pligidan qiynalamiz.

Hozir biz bu narsaga yechim qidiramiz yani O'zbekiston sharoitiga mos kapsula garderob tuzamiz .

Avvalo biz o'z stilimizni tanlashimiz kerak yani bizga nimalar yoqadi, qanaqa ranglarni yaxshi ko'ramiz ?

Bu savollarga javob topib bōlganimizdan sōng shkafimizni ochib kiyimlarni kōramiz va kiyimlarimizni ajratib chiqamiz yani eski kichrayib qolgan kiyimlar bōlishi mumkin (bularni tashlab yuboramiz yokida sifati yaxshi bōlsa singlimizga ,singlimiz bōlmasa boshqa biror tanish razmeri tushadigan insonga berishimiz mumkin), bir xil ko‘ylak, bir xil shim, bir xil rangdagi kiyimlar ko‘p bo‘lsa, ajratib ko‘rish kerak, sifatlil va hali ko‘p kiyilsa bo‘ladigan kiyimlarni olib qolamiz, har kuni kiyiladigan oddiy kiyimlar Masalan, oddiy futbolkalar, oddiy shimlar, Bayram, to‘y uchun kiyimlar : ko‘proq tantanali, rasmiy, chiroyli kiyimlar (lekin faqat keraklisini qoldiramiz).Ishga yoki maktabga mos kiyimlar: formalar, klassik ko‘ylak va shimlar. Sport kiyimlari :yugurish, sport zal uchun kiyimlarFaslga mos kiyimlar : yozgi yupqa kiyimlar, qishki qalin kiyimlar (kurtka, sviter va boshqalar).Biz bu narsalarni kōrganimizdan sōng bizga yana qanaqa kiyim kerak va qanaqa kiyim olsak kōproq kiyimimiz bilan tushishini o‘ylaymiz.Keyin usha kerakli bōlgan kiyimlarnigina harid qilib olib kelamiz va kiyimlarimiz bilan moslashtirgan holat shkafimizga taxlab qōyamiz.

Bining bizga foydasi biror joyga shoshilayotganimizga "Nima kiysam ekan" deb o‘ylab o‘tirishga vaqt sarflamaymiz, Chunki bizda tayyor bir biriga moslashtirilgan kiyimlar tōplami bor Bu ayna O‘zbekistondamas balkim boshqa davlatlarda ham muhim o‘rin tutadi.

Xulosa

Bugungi fast fashion sanoatining tez sur‘atda rivojlanishi ortidan insonlar ortiqcha kiyimlarni xarid qilib, ularni kam ishlatishga moyil bo‘lmoqda. Bu esa vaqt, pul va joy yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi. Kapsula garderob bu muammoning yechimi bo‘lib, zamonaviy insonning hayotini tartibga solishda, ongli iste‘mol madaniyatini shakllantirishda muhim vositadir.

Kapsula garderob — bu shunchaki kiyimlar to‘plami emas, balki hayotga, modaga va iste‘molga ongli munosabatdir. U insonning kundalik turmush tarzini yengillashtiradi, xarajatlarini kamaytiradi va ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Kapsula garderob tamoyillarini hayotga tatbiq etish orqali nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki ichki tartibni ham mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://avo.uz/uz/blog/post/capsule_wardrobe